



**ASRLAR MOBAYNIDA O'RGANILIB KELINAYOTGAN
NEYROLINGVISTIKA VA UNING HOZIRGI SOHALARGA VA FANGA
BO'LGAN AHAMIYATI**

Zulpikarova Bahora Odil qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

3-bosqich talabasi.

Abdulxaeva Malika Maratovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada neyrolingvistika hozirgi zamonaviy fan tarkibiga yangi kirib kelayotgan yo'nalishlardan biri ekani haqida, biz so'zlashish, ko'rish, eshitish, tushunish kabi vazifalarni faqatgina miya orqali bajarishimiz mumkinligi, biz ma'lumotlar olayotganimizda uni qayerga va qanday joylashishi hamda miya faoliyati shikastlansa, qanday hodisalar yuzaga kelinishi to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: neyrolingvistika, afaziya, tinglash, tushunish, tafakkur, frontal lob, o'ng va chap yarim shar, miya.

**NEUROLINGUISTICS STUDIED OVER THE CENTURIES AND
ITS SIGNIFICANCE FOR MODERN FIELDS AND SCIENCE.**

Abstract: This article discusses neurolinguistics as one of the emerging fields in modern science. It highlights that functions such as speaking, seeing, hearing, and understanding are carried out solely by the brain, how information is perceived and stored, and what phenomena may occur when brain activity is impaired.



Keywords: neurolinguistics, aphasia, listening, understanding, thinking, frontal lobe, right and left hemisphere, brain.

НЕЙРОЛИНГВИСТИКА, ИЗУЧАЕМАЯ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВЕКОВ, И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ СОВРЕМЕННЫХ СФЕР И НАУКИ.

Аннотация: В данной статье рассматривается нейролингвистика как одно из новых направлений современной науки. Освещаются вопросы о том, что функции речи, зрения, слуха и понимания осуществляются исключительно мозгом; как информация воспринимается и хранится, а также какие явления возникают при нарушении деятельности мозга.

Ключевые слова: нейролингвистика, афазия, слушание, понимание, мышление, лобная доля, правое и левое полушарие, мозг.

Lingvistika sohasiga kirib kelgan hozirgi kundagi tilshunoslar uchun, zamonaviy fanlardan biri sifatida o'rganib kelinayotgan neyrolingvistika fani miyamizni yanada yaxshiroq o'rganishimizga imkon bo'ladigan soha desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqorida keltirilgan izlanishlarni yahlitlaydigan bo'lsak, miya 2 turga bo'linadi: birinchisi, miyacha – ta'naning o'z holatini tutishini boshqarib turadi. U engsa chuqurchasida joylashgan bo'ladi. Ikkinchisi, miya esa o'z holatida biz biladigan 2 turga bo'linadi: o'ng va chap yarimsharlar. Biz bu ikkisini alohida alohida holatda o'rganamiz. Chunki, bunda miya hujayralari (neyron)da tashkil topib, usti esa aksonlar ya'ni oq tolachalar bilan qoplangan bo'ladi. O'ng yarim shar orqali inson tasvirni qabul qiladi, chap yaqim shar orqali esa tafakkur qiladi. Bu ikkisi birgalikda atrof muhit bilan fikrlab, so'zlashishga yordam beradi. Ammo insonning chap yarim sharisiz, faqatgina tasvir orqali o'ylay olmaydi, sababi asosiy mohiyat chap yarim sharga bog'langan hisobalnaadi. Shu sababli ham nsonning tafakkur va muloqot jarayoni aynan ikki: o'ng va chap yarim sharlarni birlashtirib turgan **miya** orqali boshqariladi.

Gapirish, ko'rish, tushunish hamda, eshitish ko'nikmalari ulg'ayganimiz sari shartli va shartsiz reflekslar orqali rivojlanib boradi. Va bunda nafaqat tashqi muhit



balki, miya faoliyatining ahamiyati kattadir. Sababi, faqatgina miya orqali ko'rib, tushunib va xulosa chiqarib o'z fikrimizni bayon qila olamiz. Va aynan mana shu sohani o'rganuvchi fan bu – **neyrolingvistika** deb ataladi. Neyrolingvistika ko'plab kashfiyotlar va sohalarning rivojlanishida katta ta'sirini ko'rsatgan yo'nalishlardan biri. XIX asrning oxiridan to XX asrning boshlariga qadar bo'lgan vaqt aynan tilshunoslik va neyrologiya fanlarining o'zaro birikishiga neyrolingvistika fani yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan.

Aynan shu vaqt mobaynida ko'plab olimlar o'z hayoti mobaynida aynan shu soha yuzasidan bir nechta tadqiqotlar o'tkazishgan va buning natijasida inson tanasidagi eng muhim a'zo bu – **miya** deb tan olingan. Sababi, shu tana a'zosi tufayli inson tafakkur qila oladi.


Taniqli olimlardan biri Chomskiy tomonidan 1965 – yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra til va miya o'rtasidagi munosabat katta ahamiyat kasb etadi. U o'zining Universal Grammatika nazariyasi til o'rganish qobiliyatining biologic tarzda asosli ekanligini aytib o'tgan va bu nazariy tilshunoslikda katta qiziqishlarga sabab bo'lgan nazariyalardan biridir. Nafaqat gapirish va ko'rish balki, boshqa insonlardan farqli ravishda o'z tushunish doirasiga qarab fikrlay oladi. Ammo ba'zi insonlarda gapirishda, tinglab tushunishda va fikrlay olishda nuqsonlar bo'ladi. Bunda esa miya faoliyatining o'rni juda yuqoridir.

Miya shikastlanishi orqali yuzaga kelgan nuqsonlar esa fan tilida “afaziya” deb yuritiladi. Insonning tashqi muhit bilan qilgan aloqasiga ko'ra turli xil afaziyalarga uchraydi va ularning nomlanishi bemorning holatiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi.

1861 – yilda fransuz anatomi Broka o'z tadqiqotlarida miya sharining chop yarim sharidagi Frontal lob Broka hududi deb nomlanadi. Agarda miyaning mana shu hududi shikastlansa, bu “Broka afaziyasi” deb ataladi. Bunda bemorda gapirish qiyinlashadi, so'zlar asta – sekin aytiladi. Grammatik jihatdan xatoliklar qiladi, ammo hammani tushunadi. Yana bir olimlardan biri Karl Vernik, 1874 – yilda “Til miyaning frontal qismidan boshqariladi.” degan nazariyani ilgari surgan. Va uning miya ichidagi frontal Temporal lob qismida joylashgan ma'lum bir to'qimalar

shkastlansa, inson tez gapiradi ammo tushunarsiz, so'zlar esa chalkash vas hu jumladan ular hech kimni tushunishmaydi. Bu hudud agarda zararlangansa, u yer “ Vernika afaziyasi” deb nomlanadi.

Yuqorida keltirilgan ikkiolimning fikriga ko'ra xulosa chiqarsak, miya faoliyatining til bilan chambarchas bog'liq hududi bu – chap yarim shardir.



Gap boshida “afaziologiya” tushunchasi haqida aytib o'tgandik. Bunda miya jarohatlanganida tilga ta'siri va uni qayta ishlashga yordam berishdir. Va afaziologiya bo'yicha dastlabki, tadqiqot ishlari XX asr boshlarida Korbinian Brodman tomonida olib borilgan. Unga ko'ra miya sirtini xaritalashtirish, ya'ni har bir hududning sitoarxitekturasi (hujayra tuzilishi) va joylashuviga qarab, uni raqamlashtirishni ilgari surdi. Bu esa meditsina shu jumladan neyrologiya, neyrohirurgiya va neyropsixologiyada o'z samarasini ko'rsatmasdan qo'ymadi. Hozirda bu tushuncha “Brodman sohasi” deb ataladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan olimlarning barchasi o'z davrida asosli dalillar keltirib, ilmiy tadqiqotlari bilan ushbu sohaga katta xissalarini qo'shishgan. Xulosa qilar ekanmiz, neyrolingvistika til va miya o'rtasidagi asosiy bog'liqlikni



yaratadigan, ko'rish eshitish, tafakkur va tasavvurning asosiy tom ma'nodagi ildizi aynan miya ekanligini anglashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi . T. 2016.
2. Tibbiyot psixologiyasi. Z.Ibodullayev. T.Iqtisod-moliya. 2008.
3. The Big Book of NLP.Shlomo Vaknin. Copyright © 2010 by Inner Patch Publishing
4. H.S.Egamberdiyeva - “Zamonaviy tilshunoslikda neyrolingvistika sohasining paydo bo‘lishi va uning ahamiyati.” 20
5. [NEYROLINGVISTIKA: TAHLIL VA TALQIN](#) 62-65. 2024y
6. https://www.researchgate.net/publication/360931202_Neyrolingvistika
7. Linguisticsociety.org
8. En.m.wikidepiya.org
9. <https://regionalneurological.com/types-of-aphasia/>
10. MyAdvancedIdeas.com